

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

RUS TILI YO'NALISHI

201- GURUH TALABASI

QO'CHQAROVA MAHLIYONING

O'ZBEK TILI FANIDAN

“SON SO'Z TURKUMI, UNING MA'NO TURLARI”

MAVZUSIDA YOZGAN



REFERATI

Mavzu: Son va uning uslubiy xususiyatlari

Kirish

Reja

- Soʻz turkumlari haqida umumiy maʼlumot
- Mustaqil soʻz turkimi.
- Son soʻz turkumi va uning grammatik xususiyatlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Ma'lumki, har qanday fan tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan turli narsa va hodisalarni, inson bilan bog'liq xususiyatlarni o'rganadi. Ularni o'rganish esa mavjud bo'lgan narsa, xususiyat va hodisalarni to'plamlarga bo'lishdan boshlanadi: "O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi to'plam deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo'lish tasnif hisoblanadi".

Tildagi so'zlarning umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra ma'lum guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari deb yuritiladi. So'z turkumlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Mustaqil so'z turkumlari lug'aviy ma'noga ega bo'lib, morfologik jihatdan o'zgaradigan, gap ichida ma'lum sintaktik vazifa bajaradigan so'zlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kiradi.

Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no anglatmaydigan, gap bo'lagi bo'la olmaydigan, grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan so'zlardir. Ular mustaqil so'zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so'zga va gapning mazmuniga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shadi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi.

Alohida olingan guruh so'zlar lug'aviy ma'no bildirmaydigan, lekin ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bularga modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar kiradi.

Quyida barcha (6 ta) mustaqil so'z turkumlarining har biriga 5 tadan misol aralash holda berilgan. Ularni jadvalga ajratib joylashtiring.

Kuz, biz, ertalab, o'tir, o'ntacha, buyuk, borma, sakkizinchi, hech kim, chop, chiroy, uchala, qani, foydalan, uyqu, chiroyli, bugun, ban, mardlarcha, befoyda, so'zla, shirin, picha, foyda, uzun, mingta, har narsa, ohista, havo, oltov.

Ot

Sifat

Son

Olmosh

Fe'l

Ravish

Mustaqil so'z turkumlariga misollar topish yuzasidan «Topqirlar bellashuvi» o'yini tashkil qiling.

Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Undagi «insonlik sha'niga isnod», «tiriklikdagi o'liklik» iboralari ma'nosini ham sharhlang.

SHARAFLI BURCH

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog' sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo'l qabriston oralab o'tar ekan, qabristonga yuz qadam chamasi qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo'lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib, o'tib ketishibdi. Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning jigargo'shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik tiriklikdagi o'liklikdir. Ota-bobolarimiz xokini, xotirasini e'zozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo'ygan boladek to Hirotning qorasi ko'ringuncha tillarini tishlab, aqlini peshlab boribdilar.

Sonning leksik-grammatik ta'rifi.

Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog'ini, tartibini bildirgan so'zlar turkumi son deyiladi. Son necha? qancha? nechta? nechanchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sonlarning morfologik xususiyatlari: 1) sonlar juft, dona, metr, siqim kabi hisob so'zlari bilan qo'llana oladi; 2) so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham qo'shilavermaydi; 3) boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

Sonning sintaktik xususiyatlari: 1) doim otlar bilan birga qo'llanadi; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so'zlarni o'ziga tobe qilib kelmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo'lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo'lak vazifasini bajaradi: Uch dugona kelishyapti; 4) son va sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, oldin son keyin sifat keladi: ikkita chiroyli kuylak. 5) sonlar gapda ko'pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: Maqsadimiz bitta. Beshta qalam oldi.

Sonlarda quyidagi xususiyatlar ham mavjud: 1) omonimlik: yuz (son) – yuz (chehra), uch (son) – uch (harakat), qirq (son) – qirq (harakat), yigirma (son) – yigirma (harakat); 2) sinonimlik: bir – yakka, ikki – juft; 3) paronimlik: yetti – yetdi.

Sonlar ko‘pincha raqamlar bilan yoziladi:

Arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8,9.

Rim raqamlari bilan: birliklar: I (1), II (2), III (3), IV (4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); o‘nliklar: X (10), XX (20), XXX (30), XL (40), L (50), LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC (90); yuzliklar: S (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); mingliklar: M (1000), MM (2000), MMM (3000)

Badiiy asarlarda sonlar so‘z bilan yoziladi: To‘rt yil kutdi.

Nutqimizda ishlatiladigan 23 ta sodda son bo‘lib, boshqa sonlar shularning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: nol, bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson, yuz, ming, million, milliard.

Qadimgi o‘zbek tilida lak (hindcha – yuz ming), tuman (mo‘g‘ulcha – o‘n ming) sonlari bo‘lgan.

Butun son, kasr son, aralash son va uning yozilishi.

Narsa-buyumning son-sanog‘ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydigan son butun son deb ataladi: 1, 3, 5, 12 kabi. Narsa-buyumlar

miqdorini bo'laklab, qismlab ifodalaydigan son kasr son deb ataladi: $\frac{1}{2}$ (yarim), $\frac{1}{4}$ (chorak), $\frac{1}{8}$ (nimchorak). Kasr son ikki xil ifodalanadi: 1) ikki son chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan bog'langan bo'ladi: ikkidan bir. 2) o'z holicha kasrni anglatadigan so'z bo'ladi: yarim, chorak, nimchorak. Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son deb ataladi: bir yarim, ikki butun o'ndan uch. Butun, kasr, aralash sonlari ajratib yoziladi: bir yarim kilogramm.

Sonning ma'no turlari.

Sonlar ma'no va grammatik jihatdan olti xil bo'ladi:

Miqdor (sanoq) son bir turdagi narsa-buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi: bir mashina, ikki odam, o'n besh kishi. Nutqimizda bir so'zi miqdor ifodalashdan tashqari quyidagi ma'nolarni ham ifodalaydi: 1) noaniqlik (bunda u qandaydir olmoshiga sinonim bo'ladi): Eshikni bir kishi taqillatyapti; 2) kuchaytiruv (bunda u juda so'ziga sinonim bo'ladi): Bir yugurdim, bir yugurdim; 3) ketma-ketlik (bunda u dam, goh bog'lovchilariga sinonim bo'ladi): Bir menga, bir unga qaraydi; 4) chegaralash (bunda u faqat yuklamasiga sinonim bo'ladi): Hamma keldi, bir Ahmad kelmadi; 5) tenglik (bunda u teng so'ziga sinonim bo'ladi): Qonun oldida hamma bir. Dona son narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi.

Dona son miqdor (sanoq) songa -ta qo'shimchasini (jonli-jonsiz narsa nomlariga birika oladi) qo'shish yoki dona (narsa nomlariga birikadi), nafar, bosh (mavjudot nomlari bilan birikadi), tup (o'simlik nomlari bilan birikadi) so'zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: beshta qush, uch dona non, o'n nafar odam, yuz bosh qo'y.

Tartib son narsa-buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa -nchi, undosh bilan bitgan miqdor songa -inchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi: birinchi, ikkinchi. Tartib sonlar

arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo'shimcha yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo'yiladi. Rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo'yilmaydi: 2-brigada, X sinf. Tartib sonlar ma'no jihatidan sifatlarga yaqin turadi va ularning ayrim turlari sifat turkumiga ko'chishi ham mumkin: Yettinchi lampa, o'ninchi (yoki qirqinchi) ip, yuzinchi lampochka. Shuningdek, birinchi tartib sonining o'rnida ilk, dastlabki, asosiy, avvalgi, eng yaxshi degan sifatlarni sinonim tarzida qo'llash mumkin. Kirillcha yozuvda yil va oyni ko'rsatuvchi arab raqamlaridan keyin chiziqcha qo'yilmaydi: 1998 yil, 15 fevral.

Chama son narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradi va quyidagicha hosil bo'ladi: 1) miqdor songa -tacha qo'shimchasini qo'shish orqali: o'ntacha mashina; 2) miqdor songa -lar, -larcha qo'shimchasini qo'shish bilan: Soat birlar edi. Yuzlarcha bola yig'ildi. 3) miqdor songa -lab qo'shimchasini qo'shish bilan: Minglab odam; 4) ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: besh-olti, uch-to'rt.

Jamlovchi son narsa-buyumning umumiy sonini bildiradi va miqdor songa quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi: a. -ov qo'shimchasini qo'shish bilan: uchovi, to'rtovi; b. -ala qo'shimchasini qo'shish bilan: ikkala, uchala; c. -ovlon qo'shimchasini qo'shish bilan: beshovlon, oltovlon; Ikki, olti, yetti miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, o'zakdagi i tovushi tushib qoladi: ikkovi, oltovi, yettovi. Uch, to'rt sonlariga -ala qo'shilganda, uchchala, to'rttala tarzida aytilsa ham, uchala, to'rtala deb yoziladi. Jamlovchi sonlar ko'pincha 1 dan 7 gacha bo'lgan sonlardan yasaladi (o'nala, o'novi shakllari uchraydi) va ma'no jihatdan otlarga yaqin turadi.

Taqsim son narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi va miqdor songa -tadan qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: ikkitadan, o'ntadan, yuztadan. Ba'zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: Ikki bo'lib yurdik. Miqdor bildiruvchi so'z qatnashsa, -ta tushiriladi: beshtadan -besh kilogrammdan.

Hisob soʻzlari (numerativlar) haqida maʼlumot.

Miqdor sonlar bilan qoʻllanib, noaniq tushunchasini ifodalaydigan soʻzlar hisob soʻzlari (numerativlar) deb ataladi: besh soʻm, oʻn gramm, yuz yil. Bunday soʻzlar aslida ot turkumiga mansub boʻlib, oʻz lugʻaviy maʼnolarini qisman yoʻqotgan noaniq maʼno ifodalaydigan boʻlib qolgan soʻzlardir. Hisob soʻzlari quyiladi guruhlariga boʻlinadi: 1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan (dona, nusxa, tup, bosh, nafar); 2) butunning qismini hisoblash uchun (parcha, varaq, burda, ogʻiz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, hoʻplam, tomchi, chaqmoq, nimta, toʻgʻram, poy, toqa, boʻlak, shingil); 3) toʻdalab koʻrsatuvchi (gala, toʻp, guruh, toʻda, dasta, bogʻ, quchoq, shoda, hovuch); 4) juftlab ifodalovchi (juft, para); 5) ogʻirlikni oʻlchaydigan (gramm, kilogramm, sentner, tonna, misqol, pud, botmon, qadoq, paysa); 6) uzunlik oʻlchovini bildiradigan (millimetr, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh, gaz, qarich, quloch, qadam,); 7) yosh oʻlchovini bildiradigan (yashar, yoshlik, oylik, kunlik); 8. vaqt, qiymat oʻlchovini bildiradigan (soniya, soat, kun, oy, yil, hafta, asr); 9) qiymat oʻlchovini ifodalaydigan (soʻm, tiyin, tanga, miri, paqir). Bulardan tashqari, quyidagi hisob soʻzlari son va feʼl orasida kelib harakat miqdorini bildiradi: marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daʼʼa.

Sonlarning otlashishi.

Gapda ot bogʻlangan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son otlashadi. Otlashgan son xuddi otlarga oʻxshab egalik, koʻplik va kelishik qoʻshimchalarini oladi: Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar.

Sonlarning tuzilish jihatdan turlari.

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

Sodda sonlar bir o'zakdan hosil bo'ladi: bir, uch.

Qo'shma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: o'n uch, bir yuz o'n, sakkiz.

Juft sonlar ikkita turli o'zakning juftlashishidan tuziladi: besh-olti, yetti-sakkiz, o'n besh-o'n olti.

Takroriy sonlar bir o'zakning takrorlanishidan tuziladi: ikki-ikki, to'rtta-to'rtta, o'nta-o'nta.

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi. Tilchi olimlar sakson va to'qson sonlarining sakkiz va o'n, to'qqiz va o'n so'zlaridan tuzilganligini aniqlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** Maktablar uchun mo'ljallangan 8-sinf « Ona tili » darslik kitobi.
- 2.** Akademik litsey va kollejlari uchun qo'llanma.
- 3.** WWW/ona tili/uz .